

Rossiya tarkibiga o'tadi. Chap tomoni esa Xiva xonligi qo'l ostida qoladi.

Podsho hukumati hozirgi Qoraqalpog'iston hududida uning iqtisodiy va tabiiy sharoitlarini o'rganish bo'yicha bir necha kompleks ekspeditsiyalar tashkil etdi. Eng birinchi tadqiqot ishlari Amudaryoning Uzboy orqali Kaspiy dengiziga tutashishini aniqlashga yo'naltirildi. Shunga bog'liq 1879-1880- yillarda birinchi marta rus olimi A.A.Gluxovskiy rahbarligidagi ekspeditsiya tadqiqot ishlarini olib bordi. Shu ekspeditsiya meteorolog F.V.Dorunt Nukus shahri to'g'risida har soatiga ob-havoga tavsif beruvchi meteorologik kuzatishlar olib bordi. Natijada birinchi marta bu hududning cho'l iqlimi xususiyatlarini aniqlashda imkon beradigan ma'lumotlar to'plandi.

F.V.Dorunt birinchi marta Amudaryo suvining harorati bo'yicha kuzatishlar olib bordi. U 1874-yilning birinchi oktyabridan 1875-yilning 28- sentyabrigacha Nukus yaqinidagi Amudaryoning qayirini mineralogik tarkibini aniqlash maqsadida bir necha andoza oldi. Shu ekspeditsiya a'zosi gidrograf N.N.Zubov Amudaryoning quyi oqimida suv sarfi bo'yicha kuzatishlar olib bordi. XX asr boshida hozirgi Qoraqalpog'iston respublikasi hududiga geolog va geograflardan L.S.Berg, A.D.Arangel'skiy, S.M.Nikitin, tuproqshunoslar N.A.Dimo, S.S.Neustruev, gidrologlar N.A.Borodin, K.N.Vladimirov, L.N.Molshanov, injener V.V.Tenzerling, geodezist N.V.Mastitskiy va boshqalar ajoyib tadqiqot ishlarini olib bordi. Natijada Qoraqalpog'iston hududining gidrografiyasi, iqlimi, geologiyasi, va tuproq qatlami o'rganildi. Gidrometrik kuzatishlar olib borildi. Ularning ichida ayniqsa akademik L.S.Berg bilan akademik A.D.Arangel'skiyning mehnatlari alohida o'rin egallaydi.

XIX asr ikkinchi yarmidan Orol dengizi haqida ma'lumotlar Buyuk Britaniya manbalarida ham tasvirlandi. Masalan, «Ensiklopediya Britaniko»ning asosi Orenburgda tuzilib, keyinchalik Londonda, XX asr o'rtalarida esa Chikagoda chiqariladigan bo'ldi. Shu ensiklopediya Qoraqalpog'iston hududi va Orol dengizi haqida geografik ma'lumotlar, ya'ni uning to'liq koordinatalari Kaspiy dengizidan 75 metr balandlikda joylashganligi, dengizning shimoldan janubgacha uzunligi 265 mil – 324 km, g'arbdan sharqqa 145 mil – 232 km ekanligi haqida ma'lumotlar bor.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya hukumati Orol bo'yiga yirik ekspeditsiyalar yubora boshladi. Bu ekspeditsiya

ishtirokchilari o'lkamiz tabiatini o'rganib qo'ymasdan, tarixi, etnografiyasini ham o'rgangan. Masalan, 1873- yili Rizoquli Mirzo Qoraqalpog'istonda bedachilik sohasini o'rgandi. Chimboy tarixini va aholisi hayotini L.Sobolyov o'rgangan. 1875- yili polkovnik Nasirov rahbarligidagi komissiya kelib o'lkadagi yerdan, suvdan foydalanishni tartibga solish, boshqarishni yangicha taqsimlanishi uyezdlanga bo'linib, har-xil statistik ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullandi.

1909-yili sentabr oyida K.Paen Amudaryo bo'limining Chimboy hududi aholisining qanday ishlar bilan shug'ullanishini dexqonchilik va chorvachilikning joylashishini, aholining ko'chmanchi va o'troq qismlari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib bordi.

1912-yili agronom Anderson Qoraqalpog'iston hududida dehqonchilik sohasini o'rgandi. Qoraqalpog'iston hududida 1912-1913-yillari olib borilgan statistik iqtisodiy tadqiqotlarning natijalari iqtisodchi L.Rilovning muxarrirligida ikkita tom bo'lib nashrdan chiqdi. 1916-yili D.Panfilov va Kovalyovlar yer o'lchash ishlari bilan shug'ullandi.

XX asr ikkinchi yarmida Qoraqalpog'iston hududida geografik tadqiqot ishlarining hajmi ancha kengaydi. Gidrometeorologik kuzatish joylari soni ko'paydi. 1929-1939-yillarda O.S.Valov Ustyurtning geologiyasi va geomorfologiyasini o'rgandi. U shuningdek, Ustyurdagi buloqlar va quduqlar haqida birinchi ma'lumotlarni berdi. 1932-yili A.I.Smol'ko Qoraqalpog'iston hududining neft va gazga boy ekanligini isbotlab berdi.

XX asrning ikkinchi yarmida Qoraqalpog'iston hududida geografik tadqiqot ishlarining hajmi ancha kengaydi. Gidrometeorologik kuzatish postlari soni ko'paydi. 1932-yili A.I.Smolko Qoraqalpog'iston hududining neft va gazga boy ekanligini isbotlab berdi. 1937- yildan boshlab S.R.Tolstov boshqargan «Xorazm» etnografik ekspeditsiyasi uzoq yillar davomida o'lkamizda ishlab, 1960-yili «Amudaryoning quyi oqimi, Sariqamish, Uzbo'y» degan asarni nashrdan chiqardi.

Qoraqalpog'iston yer osti qazilma boylik konlarini, o'simlik va hayvonotlar dunyosini, agroiklim resurslarini, tuprog'i va ekologik muammolarini o'rganishda atoqli olim akademik O.Akramxodjaev, professor A.Rafikov, professor J.Matmuratov, K.Qurbaniyozov, J.Samanov, K.Ibragimov, A.Bekbo'latovlar va boshqalarning hissallari benihoya katta bo'ldi.

Adabiyotlar

1. Baratov P. O'zbekistonning tabiiy geografiyasi. –Toshkent: «Ukituvchi»,1996.
2. Матмуратов Ж. Агроклиматические условия северо – западного Узбекистана. –Нукус: «Каракалпакстан». 1989.
3. Бекбулатов А. Из истории географической изученности территории Каракалпаки. –Нукус: «Билим», 1977.
4. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Физико-географическое районирование Туранской части Средней Азии. –Ташкент: «Фан». 1970.
5. Тажегдинов М.Т., Бутов К.Н. «Растительность современных водоемов Каракалпакии». –Ташкент: «Фан». 1972.

REZYUME. Maqolada Qoraqalpog'iston hududining geografik o'rganilish tarixidan ma'lumotlar tahlil qilingan, ularning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируются данные из истории географического изучения территории Каракалпакстана, дается представление об их значении.

SUMMARY. The article analyzes data from the history of the geographical study of the territory of Karakalpakstan, gives an idea of their significance.

TO'QIMACHILIK SANOATI XOM ASHYOSI VA MAHSULOTLARI ISHLAB

CHIQRILISHI GEOGRAFIK JIHATLARI

D.R.Ro'zmetov – *geografiya fanlari nomzodi*

Xorazm Ma'mun akademiyasi

Tayanch so'zlar: to'qimachilik, xom ashyo, tabiiy tola, kimyoviy tola, tikuvchilik

Ключевые слова: текстиль, сырьё, натуральное волокно, химическое волокно, швейное производство.

Key words: textile, silk, natural fiber, chemical fiber, sewing industry.


Aholing doimiy ortib borishi uni iste'mol mollari bilan ta'minlashda yangi-yangi texnologiyalar va mahsulotlar yaratishni talab etadi. Xususan, bu yengil sanoatga ham tegishlidir, tabiiy to'qimachilik xom ashyosi ishlab chiqarish hajmi turli omillar tufayli cheklangan.

To'qimachilik sanoatida xom ashyo va mahsulotlari yetishtirish hududiy va tarmoq tarkibini tahlil etish. Quyidagi vazifalar ko'zlangan: 1) Tarmoq xom ashyosi tur va tarkibi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va xususiyatlarini o'rganish; 2) Asosiy mahsulotlari ishlab chiqarishning

hududiy tarkibi va undagi siljishlarni tavsiflash va xulosalar chiqarish.

To'qimachilik tolasi kelib chiqishiga qarab tabiiy va kimyoviy turlarga bo'linadi. Kimyoviy tolalar sun'iy va sintetik turlarga ajratiladi. Sun'iy tolalar o'simlik va hayvonlarning tabiiy polimerlarini, yog'och-sellyuloza sanoati va oziq-ovqat sanoati chiqindilari, sintetik tolalar neft va ko'mirni sintezi orqali olinadi [4]. Sintetik tolalarga poliamid, poliester, poliuretan tolalari, shuningdek, poliakrilonitril (PAN), polivinilxlorid (PVX), polivinilsirt tolalar kiradi (4-jadval).

Asosiy tolali o'simlik - g'o'za tropik va subtropiklarda, mo'tadil mintaqada janubida yetishtiriladi [2]. U jahonning issiq hududlarida 100 ga yaqin mamlakatlarda yetishtiriladi. Tabiiy tolalardan paxta asosiy to'qimachilik sanoati xom ashyosi sanaladi (1-rasm). Lub o'simliklarga kanop, zig'ir, jut, abaka, yukka va boshqalar kiradi. Asosiy hayvonot tolasi - jun va ipakdir. Har yili qirqiladigan junning 95 foizini qo'ndan olinadi. Ipak qurti pillasidan olinadigan ipak tola yetishtirish areali juda tor, va to'qimachilikda ahamiyatsiz.



1-rasm. Jahonda tabiiy o'simlik tolalar ishlab chiqarish (2018-y., mln. tonna va foizda).

Manba: https://www.fao.org/3/cb_7232ru/cb7232ru.pdf

Jahonda paxta yetishtirish hajmi, kimyoviy tola va iplar raqobati tufayli, yildan yilga pasayib bormoqda. Paxta xom ashyosi yetishtirishda Hindiston, Xitoy, AQSh, aholi jon boshiga yetishtirishda O'zbekiston yetakchilik qiladi (1-jadval).

1-jadval. Jahonda paxta tolasi, jut yetishtirish ishlab chiqarish (2020 y.).

№	Mamlakatlar	paxta		№	Mamlakatlar	jut (kanop)	
		Tonna	Jon boshiga, kg.			Tonna	Ulushi, foiz
1.	Hindiston	6188000	4,63	1.	Hindiston	1951864	53,7
2.	Xitoy	6178318	4,433	2.	Bangladesh	1613762	44,4
3.	AQSh	3593000	10,962	3.	Xitoy	30497	0,8
4.	Pokiston	2374481	11,762	4.	O'zbekiston	15939	0,4
5.	Braziliya	1412227	6,74	5.	Nepal	11159	0,3
6.	O'zbekiston	1106700	33,892		Boshqalar	1087	0,0
	Jahon	26172678	3,31		Jahon	3633550	100,0

Manba: <https://www.atlasbig.com/ru/strany-po-proizvodstvu-xlopka>; [https://ru.wikipedia.org/wiki/djut_\(volokno\)#cite_note-3](https://ru.wikipedia.org/wiki/djut_(volokno)#cite_note-3)

Jut yoki kanop ham, asosan, issiq iqlimli mamlakatlarda yetishtiriladi. O'zbekistonda 2018-yilga kelib kanop yetishtirish qayta tiklandi. Hozirda kanop tolasi va ipi MDH va Yel mamlakatlariga eksport qilinmoqda. 2020-yilda jahonda 3,6 mln. tonnadan ortiq jut (kanop) tola yetishtirilgan va kanop yetishtirish bo'yicha respublika 4-o'rinni egallagan (1-jadval). 2016- yilda jahonda 2,9 million tonna zig'ir tola yetishtirilgan, uning 75% dan ortig'i to'rtta davlat - Rossiya, Kanada, Qozog'iston va Xitoy hissasiga to'g'ri kelgan. Zig'ir gazlama ishlab chiqarishda Xitoy, Frantsiya va Rossiya yetakchilik qilishadi (2-jadval).

2-jadval. Zig'ir va undan gazlama ishlab chiqaruvchi yetakchi mamlakatlar

№	Mamlakatlar	Xom ashyo, ming tonna		№	Mamlakatlar	Zig'ir gazlama (2017 y.)	
						Ming tonna	Ulushi, foizda
		2014 y.	2017 y.				
1.	Rossiya	365,1	672,7	1.	Xitoy	27,2	37,7
2.	Kanada	872,5	579,0	2.	Frantsiya	7,7	10,7
3.	Qozog'iston	420,0	561,8	3.	Rossiya	6,3	8,7
4.	Xitoy	387,0	364,8	4.	Belarus	5,8	8,0
5.	AQSh	161,8	219,9	5.	Germaniya	3,6	5,0
6.	Hindiston	141,0	125,0		boshqalar	21,6	29,9

Manba: https://www.fao.org/3/cb_7232ru/cb7232ru.pdf

Abaka – to'qimachilik banani yoki "manila kanopi" vatani Filippin va u bilan qo'shni (Indoneziya, Malayziya) hududlar hamda ayrim Lotin Amerikasi davlatlarida, agavadoshlarga mansub o'simlik – sizal, asosan Braziliyada va ayrim issiq iqlimli mintaqalarda ishlab chiqariladi. Koyr - kokos yong'og'i qobig'i va mevasi orasidan olinadigan tola Hindiston, Vetnam va Shri-Lanka mamlakatlari ushbu tola va undan bo'lgan mahsulotlarning deyarli 90 % ni ishlab chiqarishadi (3-jadval). Sizaldan farqli koyr ishlab chiqarish bozor talabini qondira olmaydi.

Tut ipak qurti pillasidan ipak tola olish issiq iqlimli mamlakatlarda - Xitoy, Hindiston, O'zbekiston, Vetnamda mujassamlashgan pilla va xom ipak ishlab chiqarishda jahonda yetakchilik qiladi (3-jadval).

3-jadval. Sizal va koyr, xom ipak ishlab chiqaruvchi asosiy mamlakatlar.


№	Sizal		Koyr		Xom ipak, tonna		
	Mamla-katlar	tonna	Mamla-katlar	tonna	Mamla-katlar	2015 y.	2021 y.
1.	Braziliya	180938	Hindiston	561447	Xitoy	170000	46700
2.	Tanzaniya	33826	Vetnam	358111	Hindiston	28523	34903
3.	Keniya	23390	Shri-Lanka	159542	O'zbekis-ton	1200	2037
4.	Madagaskar	17816	Tailand	61376	Vetnam	450	1067
5.	Meksika	12371	Gana	39892	Tailand	698	503
	Jahon	298498	Jahon	1214120	Jahon	202073	86311

Manba: <https://www.fao.org/3/cb7232ru/cb7232ru.pdf>.

2. <http://inserco.org/en/?q=statistics>

Tabiiy ipak gazlamalarga talab yildan-yilga pasayib bormoqda. Xususan, so'nggi yillarda xom ipakning salkam 55% ni beradigan Xitoy va aksar davlatlarda pilla tayyorlash salkam 4 marta kamaygan. Hindiston va O'zbekistonda, aksincha, ishlab chiqarish ortmoqda (3-jadval).

Jun tayyorlash bo'yicha jahonda Avstraliya, Xitoy, AQSh, Yangi Zelandiya yetakchilik qilib va ular hissasiga mahsulotning 70 foizdan ortiqi to'g'ri keladi (2-rasm).



2-rasm. Jahonda jun ishlab chiqarish (2018 y, %).

Manba: <https://www.fao.org/common-pages/sherst>

Merinos qo'ylari va angor echkilari, tuya va uning Janubiy Amerikada tarqalgan qarindoshlari - alpaka va guanako eng mayin va uzun tola beradi. O'zbekistonda angor echkilik Namangan viloyatida qayta tiklanmoqda. Qo'y, echki va tuyadan boshqa hayvonlardan olinadigan jun sanoat ahamiyatiga ega emas.

2021-yilda sun'iy (asosan viskoza) tolalarning kimyoviy tolalarga hajmidagi ulushi atigi 7 % ni tashkil etgan bo'lsa-da, 2020-yilga nisbatan 8 % ga o'sgan (4-jadval). Sellyuloza va uning hosilalaridan tayyorlangan sun'iy tolalar yumshoqligi, cho'ziluvchanligi, ishqalanishga chidamliligi, suv shimuvchanligi, yorug'likka chidamliligi bilan ipak va jun matolarga o'xshab ketadi [4].

Sintetik tolalar ishlab chiqarishda poliefir tolalar yetakchi o'rinni egallaydi. 2021-yilda jahonda 68,7 mln. t poliefir tolalar ishlab chiqarilgan va jami sintetik tolalarning 57,0 foizi ularning hissasiga to'g'ri kelgan. Tarmoq mahsulotiga bo'lgan talab yildan-yilga ortmoqda (4-jadval). Poliefir tolalar orasida lavsan alohida ajralib turadi [4].


4-jadval. Jahonda tola turlari bo'yicha ishlab chiqarish (2021-y., o'sish 2020-y. nisb.).

№	Barcha turdagi tola materiallar	mln. t	ulushi %	o'sish, %
1	Barcha turdagi tola, jumladan	120,0	100,0	+3,5
1.1	Kimyoviy tolalar,	89,7	75,0	+7,8

1.1.1	Sintetik tola, jumladan:	82,0	63,0	+8,0
1.1.1.1	Poliefir	68,7	57,0	+8,4
1.1.1.2	Poliamid	6,1	5,0	-15,6
1.1.1.3	Polipropilen	3,4	3,0	-0,6
1.1.1.4	Boshqa	3,8	3,0	+0,3
1.1.2	Sun'iy tola (viskoza, atsetat)	7,7	7,0	+8,0
1.2	Tabiiy tolalar, jumladan:	30,3	25,0	-6,2
1.2.1	Paxta	24,4	20,0	-9,3
1.2.2	Lub (zig'ir va boshqa)	3,8	3,0	-2,6
1.2.3	Jun	1,0	1,0	+0,4
1.2.4	Boshqa (tabiiy ipak va boshqa)	1,1	1,0	0,0


Manba: Айзенштейн Э.М. Перспективы мирового рынка волокнистых материалов // Вест. Хим. пром., № 3. – М.: НИИТЭХИМ, 2023. – С. 24-27.

Poliamid tolalarning eng ko'p ishlab chiqariladigani - kapron tolasi ko'mir va neftni qayta ishlash mahsulotlaridan olinadi. Poliuretan tolalar spandeks yoki elastan iplarini olishda ishlatiladi. Poliakrilonitril (PAN) tolalari yoki nitron ko'mir, neft va gaz sanoati chiqindilaridan ishlab chiqariladi. Nitron eng yumshoq, mayin va issiq saqlovchi sintetik toladir. Polivinilxlorid (PVX) tolalari etilen va atsetilendan olinadi. Polivinil spirti tolalar (PVS) polivinil spirtidan olinadi. Ushbu guruh tolalaridan biri - vinoldir [4]. PAN, PVX, spandeks, uglerod, aramid PVS tolalar ishlab chiqarish hajmi turg'un o'sib kelmoqda (4-jadval).



3-rasm. Kimyoviy tola va iplar ishlab chiqarishda yetakchi mamlakatlar (2021-y., foizda).

Manba: <https://www.statista.com/statistics>



4-rasm. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (2021 y., foizda).

Manba: <https://oec.world/en/profile/hs/textiles>


5-jadval. To'qimachilik mahsulotlari eksporti va importi (2021-y., foizda).

№	Jami to'qimachilik mahsulotlari			№	Kiyim-kechak mahsulotlari		
	Mamlakatlar	Eksport, mlrd. AQSh dollari	Ulushi, %		Mamlakatlar	Eksport, mlrd. AQSh dollari	Ulushi, %
1.	Xitoy	145,6	41,1	1.	Xitoy	145,6	41,1
2.	YeI	73,6	20,8	2.	YeI	73,6	20,8
3.	Hindiston	22,2	6,3	3.	Hindiston	22,2	6,3
4.	Turkiya	15,02	4,3	4.	Turkiya	15,02	4,3
5.	AQSh	13,1	3,7	5.	AQSh	13,1	3,7
6.	Vetnam	11,5	3,2	6.	Vetnam	11,5	3,2
	boshqalar	40,0	11,3		boshqalar	40,0	11,3

Manba: 2021-yilda jahon to'qimachilik va kiyim-kechak savdosi. JST hisoboti:

<https://shenglufashion.com/2022/12/02/world-textiles-and-clothing-trade-in-2021-a-statistical-review/>

2021-yilda, jahon to'qimachilik sanoati mahsulotining yarmidan ortig'ini beradigan Xitoyga, tarmoq mahsuloti eksportining 40 foizdan sal ortig'i, kiyim-kechak mahsulotlarining 1/3 to'g'ri kelgan (5-rasm, 5-jadval).



5-rasm. to'qimachilik mahsulotlari eksporti tarkibi (mlrd. AQSh doll.)

O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi ma'lumotlari,

<https://uzts.uz/-holati/>

2022- yilda, to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmida, kiyim-kechakning ulushi 50-55 foizni tashkil etdi (5-rasm). O'zbekistonning ham yuqoridagi mamlakatlar qatoriga qo'shilish imkoniyatlari katta. Ammo, hozircha O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda 1-

Poliolefin tolalari eng yengil sintetik tolalardir, suv shimmaydi, o'ta mustahkam, organizmlar ta'siriga ishqalanishda chidamli. Ular polietilen (PE) va polipropilen (PP) tolalarga ajratiladi. PE tolasi - polietilen eritmasidan olinadi. PE va PP tolalar xususiyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqarish hajmi deyarli o'smayapti. To'qimachilik sanoatida yetakchi mamlakatlar Xitoy va Hindistonda kimyoviy tola va ip tayyorlashning 80 foizi to'g'ri keladi (3-rasm). O'zbekistonda "Navoiyazot" va "Farg'onaazot" da nitron va atsetat, "Siyovush tekstil" korxonasida akril va bir qancha korxonalar tomonidan poliefir tolalar ishlab chiqariladi. Bir vaqtlar sun'iy tola – atsetatdan ko'p miqdorda ipak gazlamalar ishlab chiqarilgan. Hozirgi kunda to'qimachilik sanoatida Sharqiy va Janubiy Osiyo mamlakatlari yetakchilik qilishadi (4-rasm).

o'nlikka kirmaydi va 3 mlrd. AQSh dollaridan sal ko'prog' to'qimachilik mahsulotlari eksport qilinmoqda [11].

Mato va uy tekstil (choyshab va xokazo) mahsulotlari eksporti ulushi bo'yicha keyingi o'rinda turadi (5-rasm). Kalava va aksessuarlar esa, to'qimachilik mahsulotlari eksportida, uchinchi o'rinda turadi. Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlar, qimmatbaho to'qimachilik mahsulotlari (kiyim-kechak va tekstil garnituras) ishlab chiqarishi segmentida o'z yetakchilikni saqlab qolishgan, xolos.

Xulosa o'rinda aytish lozimki, jahon to'qimachilik sanoati kuchli "kimyolashgan". Kimyoviy tolalar ayrim jihatlari bia tabiiy tolalardan ustun turadi hamda tabiiy tolalarni siqib chiqaradi. Ayni vaqtda, aholi o'sishi barobarida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab orta borishi hamda jahon (O'zbekiston) yer fondining xo'jalik faoliyatiga tortilishi lozim bo'lgan qismi allaqachan ekologik me'yorlardan chiqib ketgan bois kimyoviy tolalar ishlab chiqarish dolzarblashib boraveradi. Ushbu hol O'zbekistonda ham kimyoviy, ayniqsa, poliefir tolalar ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishni talab etadi. Bunda PET idishlarni ikkilamchi qayta ishlash (Reprocessing MChJ) asosida tola tayyorlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Adabiyotlar

1. Айзенштейн Э.М. Перспективы мирового рынка волокнистых материалов. // Вестник Химической промышленности. № 3. -М.: НИИТЭХИМ, 2023.
2. Лугачев А.Е., Салимов А.М. Первичная обработка хлопка. -Т.: ТИТЛП, 2007. -С. 132.
3. Циркина О.Г. Производство химических волокон, методическое указание. – Иваново: ИГТА, 2010. –С. 64.
4. <https://www.fao.org/3/cb7232ru/cb7232ru.pdf>
5. <https://www.atlasbig.com/ru/strany-po-proizvodstvu-xlopka>; [https://ru.wikipedia.org/wiki/djut_\(volokno\)#cite_note-3](https://ru.wikipedia.org/wiki/djut_(volokno)#cite_note-3)
6. <http://inserco.org/en/?q=statistics>
7. <https://www.fao.org/common-pages/sherit>
8. <https://www.statista.com/statistics>
9. <https://oec.world/en/profile/hs/textiles>
10. <https://shenglufashion.com/2022/12/02/world-textiles-and-clothing-trade-in-2021-a-statistical-review/>
11. <https://uzts.uz/jahon-toqimachilik-sohasida-etkazib-beruvchilarining-holati/>

REZYUME. Maqolada asosiy to'qimachilik sanoati xomashyosi turlari ularni qisqacha tavsifi, jahonda tayyorlanish hajmi va tur tarkibi hamda ishlab chiqarish va eksporti geografiyasi berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье дана краткая характеристика основных видов сырья текстильной промышленности, объемов производства и видовой структуры в мире, а также географии производства и экспорта.

SUMMARY. The article provides a brief description of the main types of raw materials of the textile industry, the volume of production and type composition in the world, as well as the geography of production and export.

ХАЛЫҚТЫҢ ТӘБИЙИЙ ХӘРЕКЕТИНЕ ИЛИМИЙ КӨЗҚАРАС

Г.Б.Утепова – география илимлериниң кандидаты, доцент

Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Таянч сўзлар: аҳолининг такрор барпо бўлиши, туғилиш, ўлим, аҳолининг ўртача умр кўриш ёши, брутто коэффициент, нетто коэффициент.

Ключевые слова: естественное воспроизводство населения, рождаемость, смертность, средний возраст населения, брутто коэффициент, нетто коэффициент.

Key words: population renewal, birth, death, average life expectancy, gross rate, net coefficient.

Хәр жылы кандайда бир себеплерге байланыслы дүньадан көз жумған халық орнын жаңадан дүньяға келген әўладлар есабынан толтырылып барылыўы “халықтың тәбийий қайта толысыўы” деп аталады. Әўладлар алмасыўы (халықтың қайта толысыўы) даўамында халықтың саны, динамикасы, жас хәм жыныс курамы өзгереді. Туўылыўшылық хәм өлиўшилиқ көрсеткишлери тийкарында тәбийий өсиў көрсеткишлери халықтың қайта толысыўына өз тәсирин тийгизеди. Халықтың қайта толысыўы жәмийеттиң даўамлылығын тәмийнлеўиши тийкаргы процесс болып ол инсанияттың тураклы жаңаланып турыўы есапланады.

Туўылыў хәм халықтың репродуктивлик қәлеўи: Туўылыў демографиялық процесслерден бири болып, ол да бирқатар социаллық-экономикалық, материаллық факторлар тәсиринде раўажланады. Сондай-ақ, жәмийеттеги социаллық-экономикалық орталық туўылыў дәрежесин белгилейди. Буларға ҳаяллардың жәмийеттеги орны хәм дәрежеси, бәнтлиги, материаллық шараятлары, медициналық хызмет пенен тәмийинлениўи, мәмлекеттиң демографиялық сиясаты хәм тағы басқалар киреди. Халықтың жасаў шараياتи туўылыў дәрежесиндеги географиялық айырмашылықларды айқын көрсетеди.

Белгили демограф Б.Ц.Урланис “кай жерде кәмбағаллық хәм жарлылық болса, сол жерде турмыслық шараят, мәденият төмен дәрежеде болады” деген пикирди билдирген еди. Ҳақыйкатында да халықтың турмыслық шараياتи, мәденият өскен сайын оның орташа өмир көриў дәўири узаяды, халықтың курамында кекселер муғдары артады. Адамлардың тапқан дәрәматлары шаңарағының мүтәжликлерин қанаатландырыўға хәм өзлериниң жақсы жасаўына жетеди. Демек, халықтың мәдений дәрежесиниң көтерилюи туўылыў көрсеткишиниң төменлеўине алып келеди десек алжаспаймыз.

XIX әсирдың биринши ярымына шекемги дәўирде жер жүзиниң барлық аймақларында туўылыў көрсеткиши жоқары дәрежеде болды. XX әсирге келип көпшилиқ раўажланған мәмлекетлерде индустрияласыў, урбанизация процесслериниң жеделлесиўи, ҳаяллардың өндиристе активлигиниң артыўы, илим-билимлендириў тараўындағы раўажланыўлар, мәденияттың раўажланыўы, жаслардың бираз кеш некеге кириўи (турмыс курыўы) нәтийжесинде туўылыў бирқанша төменледі. XIX әсир ақырына шекем Европа мәмлекетлеринде туўылыў жоқары, өлим төмен болып, халықтың қайта толысыўы интенсив жағдайда болған болса, XX әсирге келип туўылыўшылық көрсеткишлериниң төменлеўи әҳмийетли түс алған хәм ҳәзирги дәўирге шекем бул процесс даўам етпекте. Латын Америкасы мәмлекетлеринде болса туўылыўдың жоқары, өлим жағдайының төмен көрсеткишлери өткен әсирге шекем сақланып келди. Ҳәзирги ўақытта болса бул регионларда демографиялық өтиў процесси даўам етпекте.

Туўылыў процесине тәсир етиўиши факторлардан және бири бул ҳаяллардың жәмийеттеги орны. Әсиресе, ҳаяллардың билим дәрежеси және социаллық өндиристе қатнасыўы туўылыўға, шаңарақтағы перзентлер санына тәсир етеди. Шаңарақта тек перзент тәрбияси хәм үй жумыслары менен бәнт болған ҳаялға салыстырғанда мағлыўматы, кандай да бир тараўда хызмет көрсететуғын ҳаяллардың перзентлери кем болады. Себеби, олар өзиниң алдына қойған мақсетине жетиў ушын үлкен машақатлы жолды басып өтеди, жәмийеттен орнын табады, сонлықтанда кеш турмыс курады, перзентлер саныда аз болады. Олардың пикирлеў шеңбериниң кеңлиги билим хәм мәденият дәрежеси “көп балалы” болыўды бийкар етеди.

Жоқарыда мысалда келтирилгендей, раўажланған Европа мәмлекетлери халқының жыныслық курамында ҳаяллардың 45-50%и экономикада бәнт. Ал, Азия, Африка мәмлекетлеринде бул көрсеткиш әдеўир төмен. Ҳаяллардың социаль-экономикалық тараўларда қатнасыўы тек ғана мәмлекетлерде емес, олардың аймақлық курамында да бир-биринен кескин парықланады. Сол себепли қала халқы хәм аўыл халқы арасында туўылыў дәрежесиде бирдей болмайды. Әййемги заманлардан бери сақланып киятырған жағдай бул аўыл халқы қала халқына салыстырғанда туўылыў дәрежеси мудама жоқары болып келгенлигиниң гуўасы боламыз.

Туўылыўға унамлы тәсир етиўиши факторлардан бири неке курыў жасы есапланады. Неке жасы мәмлекет тәрәпинен белгиленеди. Ерте неке курыў туўылыў дәрежесин арттырса, керисинше кеш некеге кириў ажырасыўдың азайыўына, бирақ туўылыўдың кем болыўына алып келеди. Африка, Азия хәм Латын Америкасы мәмлекетлеринде жаслар ерте неке курады. Батыс Европада болса керисинше. Неке курыў жәмийетте әўладлар алмасыўы ушын тийкар болса, ажырасыў туўылыўдың сезилерли дәрежеде төменлеўине себепши болады. Ажырасыўлардың алдын алыў, туўылыў дәрежесин нормада услаў мәмлекетлик әҳмийетке ийе мәселе есапланады. Сол себептен демографиялық процеслерди бақлаў, тийисли иси-илажлар алып барыў, туўылыў көрсеткишлерине тәсир етиў мақсетинде ҳәр бир мәмлекет тәрәпинен “демографиялық сиясат” алып барылады. Халықтың тәбийий өсиўи төмен болған мәмлекетлерде туўылыўды көбейтиўге қаратылған сиясат алып барылады. Бунда халық материаллық хәм руўхый жақтан хошаметленеди, жас шаңарақлар ушын қолайлы шараятлар жаратылады, жоқарыда келтирилген ажырасыўлар мәмлекет тәрәпинен қатаң қадағалаўға алынады.

Ҳәзирги ўақытта туўылыўды көбейтиўге қаратылған сиясат батыс мәмлекетлеринде жүргизилмекте. Керисинше туўылыўды шеклеў сиясатын илгери сүрип атырған мәмлекетлерде бар. Олар тәбийий рәўиште халқы тезлик пенен көбейип атырғанлығы себепли усындай сиясат алып барыўға мәжбүр. Туўылыўды